



## ULUG'BEK HAMDAM IJODIDAN “SABO VA SAMANDAR” ROMANI

Saburova Manzura

Nukus DPI O'zbek tili va adabiyoti

1-kurs magistri

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada taniqli yozuvchi va munaqqid Ulug'bek Hamdamning hozirgi adabiy jarayonda tutgan o'rni, badiiy asarlari va ilmiy-tanqidiy faoliyati haqida ma'lumot beriladi. Uning "Sabo va Samandar" romani tahlil qilinib asarning naqadar chiroyligini ko'rishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** adabiyot, adabiy ijod, adabiy jarayon, modernizm, poetik ruh, adabiy tanqid, poetik tabiat, tasvir mahorati, ifoda yo'sini.

Ulug'bek Hamdamning ilmiy-ijodiy va tarjimonlik faoliyati bilan yaqindan tanish bolgan muxlisga yaxshi malumki, uning adabiy-estetik qarashlarida Sharq va Garb adabiyotining turli xil muammolari, Sharq falsafasining asosini tashkil etuvchi rumiyona qarashlardan tortib G'arb modernizmi va postmodernizmiga oid nazariyalargacha qamrab olingan. U.Hamdam ilmiy, adabiy-estetik qarashlarining omillari haqida soz yuritilganda, uning eng muhim ijodiy prinsiplaridan biri badiiy asar qanday usulda, qanday "izm"da — (xoh realistik, xoh modernistik) yaratilgan bolmasin, asosida katta hayotiy haqiqatlar yotadi, realizm badiiy adabiyotning asosidir, degan qarashlar ustuvorligini korishimiz mumkin. Darhaqiqat, U.Hamdam ijodida katta hayotiy haqiqatlar tasviri, inson qalb kechinmalarining turfa xil tovlanishlari badiiy aks ettirilganiga amin bolamiz. Bu hol, ayniqsa, yozuvchining realistik asarlarida, qissa va romanlarida ozining yorqin ifodasini topgan. Ushbu ilmiy-badiiy uygunlik hatto asarlari sarlavhasida ham oz ifodasini topgan. Jumladan, adabiy jarayonda ijobiy kutib olingan "Muvozanat", "Sabo va Samandar", "Isyon va itoat" kabi romanlarda marifiy-falsafiy mantiq yetakchilik qiladi.

So'nggi yillarda yaratilayotgan asarlardagi falsafiy mazmunning chuqurlashuvi o'z-o'zidan ifodaning yangilanishiga, yangicha shakl va poetik izlanishlarga, teranlashuv va majoziy lashuviga asos yaratmoqda. Bugungi kunda yaratilayotgan aksariyat nasriy asarlarda majoziy tasvir yetakchilik qilmoqda. Turli xil shakl va korinishlarda namoyon bolayotgan bunday ijodiy izlanishlar adib ijodi naqadar serqirra ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Taniqli yozuvchi, adabiyotshunos olim Ulug'bek Hamdamning "Sabo va Samandar" asari hozirgi bizning zamонавији dunyodagi ba'zi insonlar tan olib, ba'zilari tan olmaydigan, yoki shunchaki nazariga ilmaydigan, odamlar orasida



borgan sari kamnamolashib borayotgan, insoniyatga yaratilganidan to bugungi kuniga qadar xamroh, hamroz bo'lib kelayotgan inja tuyg'u – muhabbat haqidadir.

Asarda Nodir va Nilufar, Sabo va Samandar orasidagi sevgi-muhabbat fonida Layli va Majnun o'rtasidagi ishq qalamga olingan. Layli va Majnun bir-biriga qanday talpinsa, qay holda bir-birini suysa, Nodir va Nilufar, Sabo va Samandar ham shunday.

“Sabo va Samandar”da shunday ishq kuylanganki, bu ishq insonni xotirjam yashashga bermaydi, o'z holiga qo'y maydi. Nodir va Nilufar muhabbatiga o'zgalar qarshi chiqqani tufayli o'zlarini o'zlari qurbon qilishgacha bordilar. Samandarni yoqtirgan qiz Aziza esa javobsiz sevgi qurboni bo'ldi. U Samandarning do'sti Hamid bilan turmush qursada, uchchala oshiq ham tom ma'noda o'z baxtini topmaydi.

Sherdil obrazi muhabbat, sevgi, sadoqat, vafo kabi tuyg'ularni aslida yo'q deb hisoblovchi, dunyoni ko'pincha moddiyat bilan o'lchovchi, insonlarga ham aynan shu tamoyilga ko'ra muomala qiluvchi shaxs. U odamlar o'rnini bosadigan robotlar yaratmoqchi, ular tashqi ko'rinish, ovoz jihatidan xuddi insonlardek bo'lsa-da, ammo ularda insonga xos mehr-muhabbat, sadoqat kabi his-tuyg'ular yo'q.

Sabo o'z baxtidan ota-onasining yuzi yorug' bo'lishi, oila sha'ni, or-nomusini ustun qo'yadi. Balki shuning uchun ham butun umri davomida kasallik bilan, yurak amri bilan kurashib, unga qarshi chiqib yashaydi.

Saboning kelajakdagi taqdirini muallif kitobxonga voqealar rivojida tush vositasida bayon qiladi:

*“Tush ko'radi. Tushida ulkan bir daryoning o'rtasida oqib ketayotgan emish... Buni qarangki, shundoq ikkala tomonida najot va'da etib turgan qirg'oqqa talpinmas, jonini qutqarishga harakat qilmas ekan. Negaki, qirg'oqlarning birida eri turganmish, boshqasida Samandar: qay tomonga borsa ham jonining sirtmoqda qolari tayin emish. Nega? Buni bilmasmish. Shuning uchun Sabo ulkan to'lqinlar bag'rida oqib ketaveribdi, ketaveribdi... Shu asno negadir Samandarning bir misrasi yodiga tushibdi: “Bu qanday jazodir, tushuntir, Xudo!” Hadeb o'sha tomonga qararmish-da, Samandarni ko'rib sevinarmish, tosharmish... Biroq alhol allaqayoqdan bola nidosi kelibdi. Alanglab, oila deb atalmish qirg'oqda qizi va o'g'lining ko'zlarida yosh bila mo'ltirab turganini ko'ribdi. Shunda Sabo hamma narsani, ikkala qirg'oqni ham unutibdi. Beixtiyor bolalariga qarab suzibdi. Quturgan to'lqinlar unga xalaqit berish o'rniga tanlagan qirg'og'i sari borishiga ko'maklashib yuboribdi. Hash-pash deguncha Sabo o'zini farzandlari quchog'ida*



*ko'ribdi va orqasiga qayrilib, mung'ayib jon taslim qilayotgan ikkinchi sohil – malul Samandarga ko'zi tushibdi. Shunda u nima qilganini anglab yetibdi-yu, baqiribdi: Samandar!!!” [1.255].*

Atoqli adib Xodi Toqtoshning mashur so'zlarida aytilganidek: “Muhabbat ul o'zi eski narsa, ammo har qalb uni yangilaydi”. Sabo va Samandar asarida ham uning o'zgacha ko'rinishlariga duch kelamiz.

Xulosa qilib aytganda, inson hayotida, umuman, hamma narsada me'yor bo'lishi kerak. Jumladan, sevgi-muhabbatda ham. Me'yordan ko'p, haddan ortiq bo'lgan histuyg'u oxir-oqibatda insonni xarob qiladi, osuda hayotini izdan chiqaradi. Hatto telba holiga tushurib, sarson qiladi. Ammo, ko'ngilga buyruq berib berib bo'lmaydi deganlaridek, muhabbatga o'lchovni oshiq qo'ymaydi. Sevgi-muhabbat mana shu jihatlari bilan odamzot uchun suyukli, shu qadar yurakka yaqin. Shu sababli ham bu mavzudagi asarlar o'zbek kitobxoni uchun doimo qiziq bo'lib kelgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. U.Hamdam. Sabo va Samandar. T.:, Sharq. 2007.
2. I.Yoqubov. Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi. Toshkent.:, "Nurafshon business". 2021.
3. O‘zbek tili va adabiyoti 5 /2011. O‘zbekiston Respublikasi FA "Fan"nashriyoti. Toshkent.:, 2011.
4. Расурова У. Ҳозирги адабий жараён. Т.:, Мумтоз сўз, 2014
5. Nematov, R. A., & Almanov's, Q. O. (2022). THE ROLE OF HISTORICAL SOURCES IN THE STUDY OF THE HISTORY OF THE TURKISH EMPIRE. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 2(10), 25-31.
6. Ochilov, I. (2023). IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN FORMING THINKING AND SKILLS IN HISTORY LESSONS. Science and innovation, 2(B4), 481-484.